



SHUMERLAR – ILK SIVILIZATSIYA ASOSCHILARIDAN BIRI

Muhiddinova Nasiba Odiljonovna

IIV Namangan akademik litseyi Tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ilmiy maqola jahondagi dastlabki sivilizatsiya asoschilaridan hisoblangan shumerlar va ularga tegishli bo'lgan, hozirgi kungacha javobi topilmagan va jumboq bo'lib qolayotgan ayrim sir-sinoatla haqida ma'lumot beradi. Bundan tashqari maqolada shumerlar to'g'risida bir qator olimlar tomonidan ilgari surilgan fikr hamda nazariyalar haqida ham ma'lumotlar mavjud.

**Tayanch so'zlar:** Sivilizatsiya, Mesopotamiya, Shumer, "Sangngiga", Yulius Oppert, Delmun, dravid, Aratti, Bobil, Genri Roulinson, "Bibliya", mixxat.

Tarix bejizga o'tmishning ko'zgusi deb atalmaydi. Uni o'rganish orqali bizda o'tmish haqida turli xil tasavvur va tushunchalar paydo bo'ladi. Biroq tarixdagi javobini topmagan jumboqlar hozirga qadar mavjud. Bu sirli jumboqlar ustida tarixchi olimlar va arxeologlar ko'plab izlanishlar hamda amaliy tadqiqotlar olib bormoqdalar. Lekin olimlarning har xil yondashuvlari fanda bir nechta yoki ko'plab nazariyalar vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Tarixning shunday sirli jumboqlaridan biri qadimgi shumerlarning vatani qayer bo'lganligi hamda ular yaratgan yozuvning kelib chiqish tarixi hisoblanib, hozirgi kunga qadar tarixchi olimlar o'rtasida turli bahs va munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Shumerlar eng qadimgi xalqlardan bo'lib, ular o'zlarining yuksak darajadagi rivojlangan madaniyatlari hamda ilk boshqaruv usullarini yaratgan dunyodagi dastlabki xalqlardan hisoblanadi. Shumerlarning kelib chiqishi fanga noma'lum. Bizgacha yetib kelgantasvirlar shuni ko'rsatadiki, ularning tashqi qiyofasi Yaqin Sharqdagi va dunyodagi boshqa qabila vakillaridan keskin farq qilar edi. Ular mil. avv. IV mingyillikning ikkinchi yarmida Mesopotamiyaning janubiy qismida paydo bo'lib, asta-sekin butun Ikki daryo oralig'ini egallaganlar. Ba'zi olimlar shumer afsonalariga asoslanib ularning sivilizatsiyasi bundan 7,5-8 ming yillar ilgari paydo bo'lgan deb hisoblaydilar. Ammo arxeologik tadqiqotlar natijasida bu nazariya isbotlanmagan. "Shumerlar o'zlarini "sangngiga" – "qora boshlar" deb ataganlar."<sup>4</sup> Bu xalqni shumerlar deb atashni birinchi bor XIX asrda nemis-yahudiy olimi Yulius Oppert (1825-1905) tomonidan "Akkad va Shumer shohi" deb o'qilgan qadimgi yozuv asosida taklif qilingan.

Shumerlarning kelib chiqishi hozirgi kunga qadar noma'lum va bahsli mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Antropologik tadqiqotlar natijasi san'at buyumlarini o'rganish orqali olingan ma'lumotlarga mos kelmaganligi sababli ularning etnik tipi ham noma'lumligicha qolmoqda. Ko'p yillar davomida olimlar shumer mixxat yozuvini o'qiy olmadilar. Natijada, ular shumer sivilizatsiyasini qayerdan kelib chiqqanligi va shumerlar o'zlarining afsonalarida nimani nazarda tutganlari to'g'risida aniq xulosalar

<sup>4</sup> <https://science.wikia.org/ru/wiki/Шымер>



chiqara olmadilar. Ba'zi bir olimlar shumerlarning vatanini Mesopotamiyaning sharqidagi Zagros tog'lari deb taxmin qiladilar. "Mil. avv. II ming yillikdan yetib kelgan hujjatlarni o'rgangan bir qator olimlar shumerlar Fors qo'ltig'idagi orollardan biri Delmun (Bahrayn) orolidan kelgan deb hisoblashadi. Ammo bu nazariyaga qo'shilmaydigan olimlarning ta'kidlashlaricha, shumer tilida "mamlakat" va "tog'" so'zlari bir xil aytilganligi sababli ularning kelib chiqishi Osiyo qit'asining tog'li qismidan bo'lishi kerak deb hisoblaydilar."<sup>5</sup> Keyingi tadqiqotlariga qaraganda, shumerlarning kelib chiqishi oriylardan oldingi hind-eron (dravid) xalqlariga yaqin bo'lib, Hindiston yarimorolining janubiy qismididan kelgan bo'lishi mumkin degan taxminni ilgari surdilar. "Enmarker va Aratti xoqon" deb nomlangan qadimiy eposni tadqiq qilgan olimlar shunday xulosaga kelganlar. Ayrim arxeologik va antropologik tadqiqotlar ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. "Enmarker va Lugalbanda haqidagi epik dostonni tadqiq etgan boshqa bir guruh olimlar shumerlarning Kaspiy dengizi bo'ylarida joylashgan Aratti shahar-davlati bilan yaxshi munosabatda bo'lganligini ta'kidlab, shu yer ularning asl vatani bo'lishi mumkin deb hisoblashadi."<sup>6</sup> Yuris Zarinsning ma'lumotlariga ko'ra, shumerlar Sharqiy Arabiston qirg'oqlarida, bugungi Fors ko'rfazi mintaqasidan bo'lgan hamda ular bu yerda muzlik davri oxirida bu hududlarni suv bosmasdan oldin yashaganlar. Shumerlarning asl vatanini Armaniston degan fikrni ilgari surganlar ham mavjud. Grigor Beglaryan Armaniston hududidagi ba'zi bir toponim nomlaridan (Zimara, Zimarra va b.) kelib chiqib shunday xulosaga kelgan. Bundan tashqari Begloryan mashhur arxeolog Genrix Shlimanning "Butun Yevropa madaniyati o'zini Qadimgi Yunoniston va Rim sivilizatsiyasining merosxo'ri deb biladi, ularning ikkalasi ham qadimgi arman sivilizatsiyasidan kelib chiqadi" degan fikrlarini ham asos qilib oladi. "Janubiy Ural psixofiziologi V.P. Putenixin shumerlarning Mesopotamiyaga Uraldan ko'chib o'tganligi to'g'risidagi fikrni ilgari surdi. Kaspiy dengizidan tashqarida Mesopotamiyaga boradigan yo'lda Katta va Kichik Zab daryolarini uchratamiz. Ulardagi mavjud Samara daryosi Mesopotamiyada miloddan avvalgi V mingyillikdan beri ma'lum bo'lgan. Ularda Perm va Sverdlovsk viloyatlarida Shamara ismli bir nechta qishloq bor ("shem" – "qora", "mara" - tepalik )."<sup>7</sup>

XX asrning birinchi yarmida shumer yozuvlarini topish hamda ularni o'qib chiqish bo'yicha F. Tyuro-Danjen, A. Pebel, A. Daymel, A. Falkenshteyn va boshqa olimlarning xizmatlari tahsinga sazovor. Albert Olmstedning yozishicha, Bobilga kelib o'rnashgan shumerlarning ot va aravani boshqarishga ustaligi, jismoniy xususiyatlari va aglyutinativ "turon tili" ularning Markaziy Osiyodan kelib chiqqanligiga ishora qiladi. Mashhur shumer shunos olim Arno Pyobel shumer tilining grammatik xususiyatlarini tadqiq etib, "shumer" va muqaddas Bibliyadagi "shem" atamalarini bitta deb hisoblaydi hamda shundan kelib chiqqan holda xulosa qilib shumerlarning eng yaqin ajdodi yahudiylar degan taxminni ilgari suradi. 1853-yilda mashhur shumer shunos olim Genri Roulinson mixxat tilini aniqlash jarayonida uni "skifcha yoki turkiycha", shumerlarni esa "Bobil skiflari" deb ataydi. Rus olimi S.P. Tolstovning fikricha, shumer tili ko'p

<sup>5</sup> Эргашев Ш. Кадимги цивилизациялар.-Т.,2016.- Б.11.

<sup>6</sup> Эргашев Ш. Кадимги цивилизациялар.-Т.,-2016.- Б. 12.

<sup>7</sup> <https://zen.yandex.ru/media/uralstalker/rodina-shumerov-ural>



jihtadan Oltoy tili guruhiga mansub turkiy tillarga o'xshash bo'lgan. "Hozirgi kunda Pensilvaniya universiteti olimlari shumer tili va grammatikasiga oid ko'p tomlik asar yozish ustida ish olib bormoqdalar."<sup>8</sup>

Xulosa qiladigan bo'lsak, shumerlar o'z davrining ilg'or madaniyatini, dastlabki boshqaruv shakllari hamda belgili yozuvni yaratdilar. Shumerlar haqida ma'lumotlar bo'lsa-da ular yetarli darajada emas. Ular haqidagi tortishuv va turli xil nazariyalarning vujudga kelishi bugungi kunga qadar davom etmoqda. Qadimgi Mesopotamiyadan topilgan skeletlar DNK sining so'nggi genetik tahlillari shumerlarning Hind vodiysi sivilizatsiyasi bilan bo'g'liqligini ko'rsatmoqda. Shunga qaramasdan tarixchi olimlar tomonidan yangidan yangi ilmiy izlanishlar va arxeologik tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kabirov A. Qadimgi Sharq tarixi. – T.: "Tafakkur", 2016.
  2. Ergashev Sh. Qadimgi sivilizatsiyalar. – T.: "O'zbekiston", 2016.
- Internet saytlari:
- 1.ru.m.wikipedia.org
  - 2.science.wikia.org

---

<sup>8</sup> Kabirov A. Qadimgi Sharq tarixi.-T.,2016.- B.98.